



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



BOBURONA USLUB VA XOS MAS’ULIYAT BABURIAN STYLE AND SPECIAL RESPONSIBILITY

Tohir Shermurodov

filologiya fanlari nomzodi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

e-mail: ehrom@list.ru

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./JXWK8113](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./JXWK8113)

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasi Zahiriddin Muhammad Boburning jahon boburshunosligida maxsus o‘rganilmagan o‘ziga xos adabiy-ijodiy uslubi, ifoda mas’uliyati, muvaffaqiyatining ta’limotiy asoslari, shu yo‘nalishdagi novatorligi masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *individual uslub, an’anaviy mas’uliyat, uslub nazorati, novatorlik.*

Annotation. *This article investigates the unique literary and artistic methodology of Zahiriddin Muhammad Babur, an eminent figure of Uzbek classical literature, whose creative style has not received focused attention in world Babur studies. Particular emphasis is placed on his expressive responsibility, the doctrinal and conceptual bases of his achievements, and his innovative approach within this tradition.*

Keywords: *individual style, traditional responsibility, stylistic control, innovation.*

Adabiy ijodda xos, individual uslub taqozosi birlamchi masalalardan sanaladi. Barcha zamonlarda va barcha milliy adabiyotlarda uslubiy mas’uliyatga jiddiy adabiy-estetik talab sifatida qaralgan, har qanday ijodkorni yoki badiiy adabiyot namunasini tahlil etish, sharhlash, baholash uslubga u yoki bu darajadagi munosabatsiz kechmagan. Uslubiy jihatlarning hamma vaqt diqqat markazida bo‘lishi g‘oyatda tabiiy holdir. Chunki uning asoslari ijodchining dunyoqarashi, e’tiqod shakli, poetik tafakkur tarzi, san’atkorlikdagi darajasidadir. Uslub ana shunday botiniy asoslarning uyg‘unlashib shakllangan mahsuli sifatida ijod namunasida o‘zini namoyon etadi. U – asarning har jihatidagi natijaning maqomini belgilovchi hodisa.

Yer yuzidagi ko‘plab xalqlar hayotining, tafakkur tarzlarining islomiy lashuvi ular adabiyotlarining ham yagona e’tiqod ta’limotlari asosida shakllanishiga, favqulodda boshqacha rivoj yo‘liga tushishiga, o‘rta asrlardan keyinroq esa misli ko‘rilmagan yuksaklik kasb etishiga sabab bo‘ldi. Mumtoz adabiyotimizning ko‘p asrlik bir diniy e’tiqod zaminida turib ijodlanishini barcha individual uslublarning ijodda islomning barcha ko‘rsatmalariga itoatdalik



sifatida ham qaramoq o‘rinlidir. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixining XX asr 30-yillarigacha bo‘lgan davrida bu tamoyil o‘z yo‘lidan og‘ishmadi. Bu ming yillardan ortiq adabiyot tajribasidagi ta‘limotiylik an‘anasining birdan-bir to‘g‘ri yo‘l, asl mohiyat, adabiy illatlardan muhofaza va yetuklik kafolati ekanligi, bu yo‘sin ijodkorlikning poetik tafakkurlar hamda uslubiy komilliklar manbai ekanligi hozirgi jahon adabiyotshunosligida tez-tez e‘tirof qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakillari uslublarini tadqiq etish har tomonlama ibratlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotining uslubiy xususiyatlari mazkur e‘tiqodiy an‘anaviylik fonida kuzatilar ekan, ifoda mas‘uliyatining g‘oyatda jiddiy, sobit ruhi bilan bir qatorda uslub xosliklarining yangi-yangi ko‘rinishlarini ham namoyon etishini ko‘rish mumkin. Albatta, bunda ham uslubda namoyon yuksak salohiyatni mukammal idroklash uchun adib adabiy merosining barcha tur va janrlardagi asarlarini nazarda tutmoq maqsadga muvofiqdir. Boburning lirik, didaktik she‘riyati, muhtasham “Boburnoma”si uning e‘tiqod o‘gitlariga sodiq, ijodiy bitiglarini ilohan hisob-kitob qilinadigan amal deb bilguvchi, haqgo‘ylikni ijodining shiori qilgan, taqozo qilinganda o‘z shaxsiyatidagi xatoliklar islohiga kechikmay kirishadigan real siymosini yorqin gavdalantiruvchi asarlardir.

Bobur hamma mumtoz so‘z san‘atkorlari singari rango-ranglik ta‘minoti o‘ta keng islomiy poetik qarashlar olamida uslubning hali adabiyot tajribasida boshdan-oxir haqiqat qarshisida beshafqat ko‘rinishini namoyish etdi. Uning beshafqat bu mas‘uliyati umuman oqil insoniyatning Yaratgandan qo‘rquvi, Unga muhabbati, muqarrar javobgarlikka bo‘lgan ishonchini ifoda etadi. Haqiqatni uning aynan o‘zidek aytish qasdida shoir Bobur o‘z nazmida, nosir Bobur o‘z nasrida o‘zini ham, o‘zgalarni ham ayamaydi. Bu holi o‘zini vasf qilish uchun emas, balki rostni bayon etish uchun ekanini ko‘p ta‘kidlaydi:

“Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zning ta‘rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibdurmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qilibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqei tahrir etilgay...O‘qug‘uvchi ma‘zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o‘tsun...”;
“Bu degonlardin g‘araz elga sangi kam urmoq emas, bayoni voqei bu edikim, mazkur bo‘ldi. Bu bitilganlardin maqsud o‘zini ortturmoq emas, rosti bu edikim, mastur bo‘ldi...” [Bobur,1989: 77].

Bobur har fikr, har lavha, ta‘rif-tavsif, voqea tasvirida so‘ziga ilohiy javobgarlik borligini his qilib turadi. Buni ko‘p o‘rinlarda ochiq aytadi ham. Har ijodiy natijani Allohdan deb biladi. *“Tengri taolo o‘z fazlu karami bila bizning ishimizni yasaydur”* [Bobur,1989: 320], deydi. Nasriy bayoni mobaynida o‘zining shoirlik mas‘uliyatini bir chetga surib qo‘ymaydi, aksincha, bu borada ko‘p mulohaza yuritadi, qimmatli ma‘lumotlar beradi. Botini va amalidagi bu yo‘nalishning mas‘uliyat tuyg‘usini shafqatsiz taftish qiladi. Jumladan, voqealar tafsiloti mobaynida shoirlardan birining *“har qanday noz-karashmachining muhabbatini nima qilsin kishi, sen bo‘lgan joyda boshqani nima qilsin kishi”*



mazmunidagi bayti shoirlar badihago‘yiligiga sabab bo‘lgani hikoya qilinadi. Tab’i nazmi bor har shoir tezkorlik bilan badiha to‘qib, hazil-mutoyibani qizdiradi. Hazil tariqasida Bobur ham bir botil bayt aytib, hammani qoyil qiladi. Bir necha kundan so‘ng og‘ir xastalik azobini tortib, buni o‘sha bayt – she’r ishida qilgan gunohining jazosi degan qat’iy xulosaga keladi. O‘zi o‘ziga qo‘ygan tashxisga binoan o‘zini davolaydi: alohida ibodat bilan tavba qiladi va tez tuzala boshlaydi. Bu voqea va tazarrusi asarda batafsil bayon etilgan [Bobur, 1989: 232-233]. Ushbu voqea tafsilotida Boburning quyidagicha xulosalari bor:

“...xotiri fotirg‘a xutur etti va hazin ko‘ngulga mundoq yettikim, hayf bo‘lg‘ay ul tildinkim, mundoq alfozni darj qilg‘ay, yana fikrini qabih so‘zlarga xarj qilg‘ay va darig‘ bo‘lg‘ay ul ko‘nguldinkim, mundoq maoniy zuhur etgay, yana zisht xayollar anda xutur etgay.

Andin beri hajv va hazl she’r va nazmidan torik va toib edim. Bu baytni aytur mahal aslo xotirg‘a yetmadi va bu ma’ni hargiz ko‘ngulga xutur etmadi...

*Ne qilayin sening bila, ey til,
Jihatingdin mening ichim qondur.
Necha yaxshi desang bu hazl ila she’r,
Birisi fahshu biri yolg‘ondur.
Gar desang kuymayin bu jurm bila,
Jilavingni bu arsadin yondur.*

...Yana boshdin istig‘for va e’tiroz maqomida bo‘lub, bu nav’ botil andeshadin, bu yo‘sunluq noloyiq peshadin ko‘nglumni tindurub, qalamni sindurdum. Ul dargohdin osiy bandalarg‘a bu nav’ tanbihlar davlatedur azim, har banda hamkim, mundoqlardin mutanabbih bo‘lg‘ay saodatedur jasim” [Bobur, 1989: 232-233].

O‘zbek mumtoz nasrining eng ulkan, gultoj namunasi bo‘lmish “Boburnoma”ga muallifining she’riyatiga ham xos hasbi hollik yanada erkinlik bilan ko‘chgan. O‘z ahvolotidan, endigina sodir bo‘lgan voqeadan kelib chiqib, bir qarashda arzimlas lavha, muomala-munosabatdan katta falsafiy umumlashmali poetik natijalarga muvaffaq bo‘lish Bobur uslubining yorqin belgilaridan biri. Faqat haqqoniylikni shior tutgan muallif bu yo‘lda o‘zining barcha masaladagi singari ijodkorlik uhdasidagi yaxshi-yomon hollarini ham ochiq-ravshan qalamga oladi.

Buni adabiy-nazariy nuqtayi nazardan va shartli ravishda o‘z-o‘zini matn ortida yashirin tutmaydigan, o‘z xato, qusur, ayblarini ham bilib fosh etuvchan uslub hisoblash mumkin. O‘zbek mumtoz adabiyotining Boburgacha o‘tgan yuzlab nodir iste’dod sohiblariga xos uslublar ichida bunday daraja, maqom kuzatilgan emas edi. Aynan shu xosliklar, usullar – o‘z targ‘ibotini aslo nazarda tutmaslik, bil’aks, shaxsiyati hamda salohiyatiga o‘ta qattiqqo‘llik bilan yondashuv, butun diqqatni faqat voqealar, dunyoqarashlar, his-tuyg‘ular, xulosalar ro‘y-rostligiga qaratish kabilar adib ifodasiga uzluksiz joziba



bag‘ishlaydi, o‘quvchini o‘ziga ohanrabodek yaqinlashtiradi. O‘zaro darddoshlik, hamnafaslik, muhabbat uyg‘otadi.

Mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining ijodlarini qaysi adabiy-nazariy masala, muammo nuqtayi nazaridan kuzatmang, ularda g‘oyaviy-badiiylarning barcha asoslari adiblarning individual uslublariga, uslubiy barkamolliklarining manbai esa haq ta‘limotning, islomiy e‘tiqodning ko‘rsatmalariga borib tutashadi. Ular ijodlarini, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Furqat singari hikmatli adiblarimizning asarlarini shu kabi aspektlarda an‘anaviylik, qiyosiylik, yangilanish, san‘atkorlik nuqtayi nazaridan maxsus ilmiy tadqiq etish bugungi adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridandir.

Mumtoz adabiyotimizning yetuk adiblari uslublarini, jumladan Zahiriddin Muhammad Bobur individual uslubini, uning ijod ishiga bo‘lgan mas‘uliyatini fundamental tadqiq etish adabiyotshunoslikning uslub haqidagi ta‘limotlarini boyitishiga shubha yo‘q. Bobur adabiy merosidagi she‘riy, nasriy asarlarni shu jihatdan umumlashgan holda ilmiy-nazariy tadqiq etish joiz bo‘ladi. Maqolada muxtasar kuzatilgan boburona uslubiy xususiyatlar, o‘ziga xos adabiy mas‘uliyat ko‘rinishlarini keng va maxsus o‘rganish hamda ilmiy xulosalarni fanga taqdim etish zamonaviy adabiyotimiz she‘riyati, nasri taraqqiyotiga ibrat namunasi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Бобур З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 368 б.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурийлар. Тўплам. 5 жилдлик. – Тошкент: Zilol buloq, 2023.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент: О‘qituvchi, 2013. б. 170.
4. Зоҳидий А. Бобур фалсафий дунёқараши. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2016. – 664 б.
5. Карим Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. Бобур ва Қодирий. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2020. – 97 б.
6. Шермурод Т. Жозиб изҳор излаб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2009. – 252 б.